


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60730400 – Muhandislik kommunikatsiyalari*  
*qurilish va ekspluatatsiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining*

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>6</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>7</b>
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i .....	12

## **1. Umumiy tavsifi**

60730400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va ekspluatatsiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60730400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va ekspluatatsiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

baklavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib o'z ichiga sanoat, jamoat, turar-joy ob'ektlarini issiqlik bilan ta'minlash, gaz ta'minoti, ventilyatsiya va havosini konditsiyalash, suv bilan ta'minlash va oqova suvlarini oqizish tizimlarini loyihalash, qurish, montaj qilish, qayta tiklash, ekspluatatsiya qilish, sohani rivojlantirish, istiqbolini belgilash bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar va muassasalar, professional ta'lim muassasalari, OTM o'quv binolari, barcha turdagi sanoat korxonalarini binolari, loyiha institutlari, ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish muassasalari ilmiy loyihalari, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarini.

60730400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va ekspluatatsiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60730400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va ekspluatatsiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan muhandislik kommunikatsiyalari texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

sohani zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

muhandislik kommunikatsiya tizimlarini yaratishda va amaliyotga tatbiq etishda, yangi mashinalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni sinovdan o'tkazishda zarur bo'lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

- mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- qurilish ob'ektlarida usta (master), ish yurituvchi (prorab) bo'lib ishlash, qurilish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini bajarish va maromiga yetkazish;
- turli qurilish ob'ektlarida muhandislik kommunikatsiya tizimlarining texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo'llash;
- qurilishda qo'llaniladigan muhandislik kommunikatsiya materiallari va uskunalarning sifatini nazorat qilish;
- muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyihalash, qurish va foydalanishda namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash;
- muhandislik kommunikatsiya tizimlarini qurilishi va tizimlardan foydalanish jarayonlarida texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilish;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilish;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolarining muhandislik kommunikatsiyalarida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolarini muhandislik kommunikatsiya tizimlari va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilishi;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolarining muhandislik kommunikatsiya tizimlari va asbob-uskunalarining texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash usullarini egallagan bo'lishi;
- muhandislik kommunikatsiya tizimlari va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

### **Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

- Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyihalash borasida tasavvurga ega bo'lishi;
- turar-joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarini issiqlik va issiq suv ta'minoti, suv ta'minoti, gaz ta'minoti, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarini loyihalash;
- muhandislik kommunikatsiya tizimlarini va uskunalari avtomatlashtirilgan loyihalashning standart vositalaridan foydalangan holda hisoblash va konstruktsiyalash;
- loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy-konstruktorlik ishlarini rasmiylashtirish;

ishlab chiqiluvchi loyihalar va texnik hujjatlarni vazifalar, standartlar, me'yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga muvofiq kelishini ta'minlash

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

- axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

bino va inshootlar arxitekturasi, qurilish konstruksiyalari, energiya samarador qurilish materiallari va injenerlik qurilmalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyihalash, bunyod etish va ekspluatatsiya qilish, ushbu jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish kompetensiyalari va ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

turar joy, jamoat va sanoat binolarida issiqlik ta‘minoti, gaz ta‘minoti, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimlarini loyihalash va ulardan foydalanish va montaj qilishni bilish;

ishlab chiqiladigan loyihalar va texnik hujjatlarni, topshiriqlar, standartlar, me‘yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga muvofiq kelishini ta‘minlash;

muhandislik kommunikatsiya tizimlari va jihozlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlashni bilish;

turar-joy, jamoat va sanoat binolarining muhandislik kommunikatsiyalarida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzishni bilish;

muhandislik kommunikatsiya tizimlarini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqishni bilish;

axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### 3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti
2. Texnologik amaliyot;
3. Ishlab chiqarish amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Umumiy Majburiy fanlar</b>	<b>3240</b>	<b>108</b>	
1.01	O‘RT1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	XT11210	Xorijiy til	300	10	1,2
1.03	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.04	FAL2304	Falsafa	120	4	3
1.05	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.06	OM11210	Oliy matematika	300	10	1,2



1.07	FIZ 11204	Fizika	240	8	1,2
1.08	QKIM1204	Qurilish kimyosi	120	4	2
1.09	TTAT1104	Qurilishda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.10	ChGMG11208	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	240	8	1,2
1.11	QM2306	Qurilish mexanikasi	180	6	3
1.12	GMG2304	Geotexnika va muhandislik geologiyasi	120	4	3
1.13	IG2404	Injenerlik geodeziyasi	120	4	4
1.14	BIA2404	Bino va inshootlar arxitekturasi	120	4	4
1.15	MMTX2304	Muhandislik materiallarining tuzilishi va xususiyatlari	120	4	3
1.16	QK2304	Qurilish konstruksiyalari	120	4	3
1.17	SGM23408	Suyuqlik va gaz mexanikasi	240	8	3,4
1.18	HFX4704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.19	EE2406	Elektrotexnika va elektronika	180	6	4
1.20	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
<b>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
2.01	NNS35610	Nasoslar va nasos stansiyalari	300	10	5,6
2.02	SKM3504	Suv kimyosi va mikrobiologiya	120	4	5
2.03	STTTI356714	Suv ta'minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar	420	14	5,6,7
2.04	KTTI356714	Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va inshootlar	420	14	5,6,7
2.05	BIVK3506	Binolar ichki vodoprovodi va kanalizatsiyasi	180	6	5
2.06	MKQMQUIT3604	Muhandislik kommunikatsiyalarini qurish va montaj qilish ishlari texnologiyasi	120	4	6
2.07	STOSOTE 3604	Suv ta'minoti, oqova suvlarni oqizish tizimlarining ekspluatatsiyasi	120	4	6
2.08	MTL4704	Muhandislik tizimlarini loyihalash	120	4	7
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>5,6,7</b>
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1260</b>	<b>42</b>	<b>3,4,5,6,7</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Muhandis-quruvchi</b>			
<b>Issiqlik-gaz ta'minoti, ventilyatsiya faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
2.01	NVK35610	Nasoslar, ventilatorlar va kompressorlar	300	10	5,6
2.02	QIF3504	Qurilish issiqlik fizikasi	120	4	5
2.03	IGTT356714	Issiqlik va gaz ta'minoti tizimlari	420	14	5,6,7
2.04	IVHKT356714	Isitish, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari	420	14	5,6,7
2.05	IT3504	Issiqlik texnikasi	180	6	5
2.06	IICHU3604	Issiqlik ishlab chiqarish uskunalari	120	4	6
2.07	ST3604	Sovuqlik bilan ta'minlash	120	4	6
2.08	MEMF4704	Muqobil energiya manbalaridan foydalanish	120	4	7
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>5,6,7</b>
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1260</b>	<b>42</b>	<b>3,4,5,6,7</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Muhandis-quruvchi</b>			
		<b>Jami:</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
		Malakaviy amaliyot*	780	26	(8)
		Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish	120	4	8
		<b>Jami:</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, oqova suvlarni oqizish, muhandislik tizimlarini loyihalash, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, imalaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti


Rektor  B.A. Tulaganov


202\_yil “ ”



M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor  M. Boltabayev



202\_yil “ ”

M.O.

O'zbekiston Respublikasi

Transport vazirligi

Vazir

  
o'rinbosari I. Abdugafarov



M.O.

Toshkent davlat transport  
universiteti

Rektor  O. Abduraxmanov

202\_yil “ ”

M.O.



“O'zsuvta'minot” AJ

Boshqartuv  
raisi

  
A. Suvonqulov



202\_yil “ ”

M.O.

«AV GROUP ASIA» MChJ

Direktor  A. Noskov

202\_yil “ ”

M.O.



“JIHOZVENT” MCHJ

Direktor  I. Hamroev

202\_yil “ ”

M.O.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektor  B. Tulaganov

202\_ yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_



**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri v.v.b.



 Sh. Xidoyatov

202\_ yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

M.O'.

"VEOLIA ENERGY TASHKENT"



Bosh direktor  A. Haytmetov

202\_ yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

M.O'.